

XORAZM VOHASI O'SIMLIK QOPLAMI TUZILISHI

Sobirov Javoxir Xayrulla o'g'li

Urganch davlat Universiteti Tabiiy fanlar fakulteti

Geografiya yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Tel: +998930901912

Sabirovj75@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu tezisda Xorazm vohasida tarqalgan turli tuman oddiy va dorivor o'simliklar haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: o'simlik, qumlik, cho'l, sho'rlangan, sho'rxok, sholi, madaniy o'simliklar,

Viloyatimiz o'simlik qoplami ham tabiiy sharoit qonuniyatlari ostida vujudga kelgan. Ma'lumki, Turon pasttekisligining juda katta qismi cho'l mintaqasiga kiradi. Uning iqlimi, o'simliklari, tuprog'i, turli-tuman bo'lganligi sababli pastki va yuqori cho'l kabi qismlarga bo'linadi. Xorazm viloyatining aksariyat qismi pastki cho'lga kiradi. Bu qismlarning aksariyat tuproqlari sho'rlangan, uning tarkibida zararli tuzlar ko'p bo'ladi. Buning oqibatida shu tuzlarning miqdoriga qarab har xil o'simliklar o'sadi.

Pastki cho'lning o'simliklari har xil bo'lib, sho'rxok joylarda sekkulent, (barg va poyalarida tuzlar ko'p bo'luvchi) o'simliklar keng tarqalgan. Amudaryo yoqalarida sug'oruv sistemalari atroflarida ko'l bo'ylarida o'tlardan qamish, qo'g'a, suv o'tlar, chiy, daraxtlardan to'rang'il, jiyda, tol, saksovul, butalardan yulg'un, chingil (jungal) ko'p uchraydi. Yantoq, pechak, buyon, bug'doyiq, ituzum, adrasman, qorabaroq, ekin ekiladigan joylarda yovvoyi o'simliklardan oqbosh va boshqalar keng tarqalgan. Jamoa xo'jaliklarida esa paxta, mosh, jo'xori, arpa, bug'doy, makkajo'xori, tariq, loviya, poliz ekinlari va sabzavotlar ko'p ekiladi. Chorvachilik uchun beda ekish ko'p tarqalgan. Viloyatimiz hududida 600 dan ortiq yovvoyi o'simlik turlari uchraydi. Ularning 250 dan ortig'i qumli joylarda o'sadi.

Qum va tuproqlarda keng tarqalgan o'simlik turi oq saksovul, selen, to'rang'il, qum akatsiyasi hisoblanadi. Gurlan, Yangibozor tumanlaridagi yuzlab gektar to'qaylar yo'qotilib, ularning o'rni sholizorlarga aylantirildi. Natijada viloyat tabiat muvozanatida o'zgarishlar sodir bo'ldi. To'qaylardagi kichik-kichik ko'llar yo'qotildi. Natijada ular o'rnida sho'rxoklar paydo bo'ldi. Bu esa erroziya jarayonining kuchayishiga olib keldi.

Viloyatdagi o'simliklar ayrim turlarining vakillari sanoat va dori-darmon ahamiyatiga ega. Ularning aksariyati chorvachilikda ham eng muhim yem xashak ekinlari hisoblanadi. O'simliklarning ayrimlariga to'xtalib o'tamiz. Buyon (eshakmiya)

Amudaryo bo'ylarida, kanallar qirg'oqlarida keng tarqalgan. Buyon tomiridan meditsinada qimmatbaho dori-darmonlar tayyorlanadi. Keyingi paytlarda buyon tomirlarining ayovsiz ravishda kovlab olinishi, turli xil firmalar tomonidan uni chet ellarga sotilishi, buyonzorlar maydonlarining keskin kamayishiga olib keldi. Bu ozuqabop va dori-darmon uchun zarur bo'lgan o'simlikni qo'riqlashning chora-tadbirlari ko'rilmasa uning ham Qizil kitobga tushish ehtimoli bor.

Qamish. Amudaryo bo'ylaridagi to'qaylarda, ko'llarda, kollektorlarda umuman suv serob bo'lgan joylarda keng tarqalgan.

Ularning bo'yi 4-5 metrgacha boradi. Suv bo'ylaridagi aksariyat qamishzorlar 1.5-3.5 metrgacha boradi. Yer osti suvlari ko'tarilishi, uning tarkibidagi tuzlarning yer ustiga chiqishiga sabab bo'ladi.

Bunday joylarda qamishlar o'sishi qiyinlashadi. Qamishdan chorvachilikdagi va qurilish materiali sifatida keng foydalanilsa ham bo'ladi. Uning ximiyaviy yo'l bilan chumoli kislotasi, metil spirit, atseton, formalin olish ham mumkin.

To'rang'il. To'rang'il to'qaylardagi asosiy o'simlik turlaridan biri hisoblanadi. Ularning bo'yi 10-12 metrgacha boradi. Diametri 0.5 metr. Allyuvial tuproqlarda yaxshi o'sadi. Hozirgi kunda undan qurilish materiali sifatida keng foydalanib kelinmoqda va ayovsiz kesilmoqda.

Jangal. (Jiydazorlar) Viloyatda uchraydigan yog'ochli o'simlik turlariga kiradi. Bo'yi 7-8 metrgacha boradi. Ayrim joylarda butazorlar tarzida ham uchraydi. Butalarning bo'yi 5-6 metrgacha yetadi.

Yantoq. Yantoq Amudaryo deltasida, daryo bo'ylarida keng tarqalgan yovvoyi o'simliklardan hisoblanadi. Qumlarga yaqin joylarda ko'p uchraydi. Qizilqum va Qoraqumga yaqinlashgan sari yantoqzorlar kengaya boradi. Ba'zi joylarda ilgari 20-30 gektarni egallagan yantoqzor to'qaylari bo'lgan. Yantoq ko'p yillik o'simliklarga kiradi. Uning tomiri yaxshi rivojlangan bo'ladi. Yer osti suvlari 10-15 metr chuqurlikda joylashgan yerlarda uning tomiri suvgacha rivojlanib boradi. Qo'ychilikda juda ozuqabop o'simlik. Asalarichilikda ham katta ahamiyatga ega. Yantoq gulidan hosil bo'lgan asal o'zining sifati bilan ajralib turadi.

Saksovul. Saksovul viloyatning Qoraqum va Qizilqumga yaqin qismlarida ko'p uchraydi. Ularning asosan ikkita turi keng tarqalgan; oq saksovul va qora saksovul. Ular qumli va tuzli joylarda o'sishi mumkin. Qo'y va tuyalar uchun qishki paytlarda muhim ozuqa bo'lishi bilan birga, yaxshigina o'tin ham hisoblanadi. Saksovul kuz oxirlarida pishib yetiladi. Undan ximiya sanoatida ham foydalanish mumkin. Saksovulzorlardan ko'chma qumlarga qarshi kurashda, o'rmon polosalari tashkil qilinmoqda. Erta bahorda cho'lda bir yillik o'simliklar efemeroidlar barq urib o'sadi.

Viloyatimizda 200 dan ortiq dorivor o'simliklarning turi uchraydi. Insonlar 1000 yillardan buyon ularni har xil kasalliklarni davolashda keng miqyosda qo'llab kelmoqdalar. Hozirgi kunda tibbiyotda ishlatiladigan dorilarning taxminan 30 foizidan ortig'i o'simliklardan olinadi. Viloyatning sug'oriladigan tumanlarida paxta, sholi, bug'doy, beda, makkajo'xori, poliz va sabzavot ekinlari keng tarqalgan.

Viloyatning tuproq-iqlim sharoitlari bir qancha ekinlari qayta ishlash asosida import o'rini bosadigan va eksportbob maxsulotlar yetishtirish va ishlab chiqarish imkonini beradi. Jumladan, quyida viloyat hududida o'sadigan, yetishtirilayotgan o'simliklar va viloyat hududida o'sishi mumkin bo'lgan tabiiy sharoiti hamda geografik o'rniga mos tushuvchi noyob va dorivor o'simliklarning bazilari haqida ma'lumot berib o'tamiz[1]. **Chakanda** (chuqur qayta ishlash asosida undan dori darmon maxsulotlari olish, bolalar uchun ovqat, konserva va boshqa maxsulotlar uchun qo'shimcha sifatida foydalanish mumkin) jiydadohlar oilasiga mansub daraxtsimon yoki butasimon o'simlik. Dorivor va mevali ekin hisoblanadi. Daryo sohillarida va to'qayzorlarda yovvoyi holda o'sadigan o'simlik hisoblanadi. Xorazm viloyatining hududidan Amudaryoning kesib o'tkanligi hamda, viloyatda ko'plab sug'orish kanallari bo'ylarida va to'qaylarida bunday o'simlikni ko'paytirish imkoniyati mavjud. Geografik tarqalishi jihatidan qulay hisoblanadigan Amudaryo daryosi bo'ylarida joylashgan hududlarda bunday noyob va dorivor o'simliklarni ko'paytirish uchun qulay tabiiy sharoit mavjud. **Grechixa** (Grechka ekologik toza mahsulot sanaladi. Gap shundaki, grechkani parvarishlashda hech qanday kimyoviy qo'shimchalar ishlatilmaydi, shu sababli ham donlarida hech qanday zararli moddalar yig'ilmaydi) uning gullaydigan yuqori qismidan tibbiyot amaliyotida qo'llaniladigan rutin(rutin qon tomirlarini mustahkamlashga va aylanishni yaxshilashga yordam berishi mumkin) olish mumkin[4]. Grechka va bug'doy uni aralashmasidan Yaponcha soba va italyancha pissokeri taomlari uchun ugra, makaron olinadi.

Raps (undan dizel yoqilg'isi, moy ishlab chiqarish mumkin, soya va rapsa shrotidan zarur qo'shimcha sifatida foydalangan holda, pechenye, qandolatchilik va boshqa maxsulotlar ishlab chiqarish mumkin). Undan tashqari bu o'simlikdan juda ko'p narsalar olinadi. Moyi ovqatga, shuningdek, margarin, sovun ishlab chiqarishda, to'qimachilik va sanoatning boshqa tarmoqlarida ishlatiladi. Kunjarasi chorva uchun yaxshi ozuqa hisoblanadi. Raps o'simligi sovuqqa chidamliligi past o'simlik hisoblanadi. Lekin shunga qaramay uning vegetatsiya davri 270 300 kun hisoblanadi. Shuning uchun ham bu o'simlikni viloyatda ko'paytirish orqali juda katta foyda olsa bo'ladi. **Topinambur** yernok (*Helianthus tuberosus*) —murakkab guldoshlarga

mansub ko'p yillik o'simlik, tuganak mevali yemxashak ekini. Vatani — Shimoliy Amerika. Yevropaga 17-asr boshlarida keltirilgan. Rossiyada 18-asrda tarqalgan[1]

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sobirov J. X. O., Komiljanova E. U. Q., Sharifboyeva H. I. Q. XORAZM VILOYATIDA AGRAR SOHANING EKSPORT SALOHIYATINI KENGAYTIRISHDA AYRIM NOAN'ANAVIY TARMOQLARDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI VA RIVOJI //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2022. – T. 2. – №. 1. – C. 38-42.

2. "Xorazm viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyasi" A.M.Sodiqov. Sh.X.Nazarov. E.T.Yoqubova. D.A.Junaydullayev. X.M.Saidaxmedov. A.J.Adizov. N.N.Safarova. N.B.Qurbanboyeva. R.R.Abdullayev. Sh.X.Otaboyev. B.S.Eshimov. Sh.Qurbonov. Toshkent-2015.

3. Soliyev A., Nazarov M., Qurbonov Sh. "O'zbekiston hududlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi" O'zbekiston respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti. Toshkent-2010.

4. O'zbekiston respublikasi statistika qo'mitasi ma'lumotlari. 2010-yil.